

URUSH HODISASI VA UNING BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI

Xolboyev Sirojiddin Zuhriddinovich

Alfraganus universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada urush jarayonlarining badiiy adabiyotga qay tarzda ko'chgani, Sharq va G'arb xalqlarida yaratilgan folklor namunalaridan toki shu bugungi kungacha e'lon qilingan badiiy asarlarda qay tarzda talqin etilgani ilmiy asoslangan. Maqola umumiy tavsif shaklida bo'lib, har bir romanga keying tadqiqotlarda to'xtalish o'rinli deb hisoblangan.

Kalit so'z: doston, epos, jangnoma, folklore

Kirish

Urush deganda ijtimoiy guruhlar, millatlar, dinlar, davlatlar va harbiy- siyosiy bloklar o'rtasidagi ziddiyatlarning qurol kuchi vositasida hal qilinishi tushuniladi. Urush hodisasi insoniyat tarixining eng ko'p kuzatiluvchi jarayonlaridan biridir. Urushlar kelib chiqishining omillari turlicha bo'lib, bu omillar urushning xususiyati va sodir bo'lgan davriga bog'liq. Urushlarni maqsadi, kelib chiqish asosi yoki ko'lamiga ko'ra shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) jahon urushlari;
- 2) milliy urushlar;
- 3) fuqarolar urushi;
- 4) diniy urushlar;
- 5) ozodlik urushlari;
- 6) mustamlakachilik urushlari.

Urush insoniyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Davlatchilik taraqqiyoti, imperiyalarning paydo bo'lishi yoki barham topishi, jahon siyosiy xaritasining o'zgarishi kabi tarixiy hodisalar bevosita urush bilan bog'liq holda ro'y bergan. Bu muhim jarayonlar badiiy adabiyotda ham o'z ifodasini topgan.

Asosiy qisim

Urush va qahramonlarning jasoratlari haqidagi asarlar qadimiy tarixga ega. Barcha xalqlarning ogʻzaki ijodida qahramonlik eposlari va jangnomalar mavjud boʻlib, ular urush hodisalarini oʻzida aks ettirgan dastlabki asarlar hisoblanadi. Qadimgi Yunoniston va Rim afsonalarida, shuningdek, Gomerning "Iliada", Vergiliyning "Eneida" dostonlarida tasvirlangan Gerakl, Tesey, Axilles, Ayaks, Odissey, Eney kabi bahodirlar, rus folklori qahramonlari: Ilya Muromets, Dobrinya Ivanovich, Alesha Popovich obrazlari, "Roland haqida qoʻshiq" (fransuz jangnomasi), "Sid haqida qoʻshiq" (ispan qahramonlik dostoni), "Nibelunglar haqida qoʻshiq" (nemis xalq eposi), "Beovulf haqida doston", "Xildebrant haqida qoʻshiq" (german qabilalari qahramonlik qoʻshiqlari), "Artur va dumaloq stol" (Britaniya ritsarlik romanlari turkumi); Sharq xalqlari adabiyotida esa "Ramayana", "Mahabhorat" (hind xalq eposlari), "Gilgamish" (Mesopotamiya afsonasi), "Manas" (qirgʻiz xalq eposi), "Qirqqiz" (qoraqalpoq xalq dostoni), Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostoni kabilar shular jumlasidandir.

Ularda qahramonlarning kuch-qudratini, fazilatlari va maʼnaviy qiyofasini tasvirlashda urush asosiy vosita boʻlib xizmat qilgan. Qahramonlarning botirlik, mardlik, vatanparvarlik, matonat va qatʼiyat kabi xislatlari aynan urush epizodlari orqali boʻrtib koʻrinadi.

Oʻzbek adabiyoti tarixida ham urush mavzusidagi asarlar yetarlicha uchraydi. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining qahramonlik va jangnoma ruhidagi dostonlari, xususan, "Alpomish", "Goʻroʻgʻli", "Avazxon", "Hasanxon", "Xoldorxon" kabi dostonlarda, yozma adabiyotimizda esa Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma" (oʻzbek yozma adabiyoti tarixidagi dastlabki jangnoma-doston) kabi asarlarida urush tasvirlari muhim oʻringa ega. Ularda ham jahon adabiyotining qadimgi namunalari boʻlganidek, urush qahramonlik va ulugʻvorlikni alohida koʻrsatib beruvchi vosita sifatida tasvirlangan. "Alpomish"da bosh qahramon Hakimbek(Alpomish)ning Toychixon boshliq qalmoq qoʻshini bilan janggi, "Ravshan" dostonidagi Hasanxonning aka-uka kallar bilan birgalikda dushmanlarning dodini berishi tasvirlari qahramonlarning jangovar xislatlarini boʻrttirib

ifodalagan bo'lsa, "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandarning Doro ustidan qozongan g'alabasi orqali adolat tantanasi g'oyasi ifodalangan. "Shayboniynoma" dostonida hukmdorning qudratini ifodalashda uning qo'shini janglarda ko'rsatgan bahodirlik va jasorat namunalarini madh etish holatlari ko'zga tashlanadi. "Boburnoma"da esa muallifning o'z boshidan kechirgan janglari, harbiy yurishlari realistik usulda ifodalangan.

XIV – XV asrlarga kelganda G'arbiy Yevropa ijtimoiy-madaniy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. Gumanizm g'oyalari shakllanib, taraqqiy etdi. Bu jarayon adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazib, eskicha an'anaviy g'oya va mavzular o'rnini yangicha qarashlar egallay boshladi. Bu jarayon Sharq mamlakatlari, xususan, musulmon Sharqida ancha vaqt o'tib, juda sekinlik bilan ro'y berdi. Sharq mamlakatlari adabiyotida (shu qatori o'zbek adabiyotida ham) an'anaviylik, turg'unlik yana uzoq davom etdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelibgina bu yerlarda o'zgarish va rivojlanish jarayoni boshlandi. Bundan farqli ravishda G'arbiy Yevropada yangi fikrli faylasuf va san'atkorlar avlodi yetishib chiqdilar. Natijada XIV – XVI asrlar Renessans (Uyg'onish davri) deb tarixga kirdi. Dante Alligeri, Franchesko Petrarka, Jovanni Bokachcho (Italiya), Fransua Rable (Fransiya), Uilyam Shekspir (Angliya), Migel de Servantes (Ispaniya) kabi adiblar ijodi natijasida adabiyotda yangi oqimlar paydo bo'ldi. Ayniqsa, Migel de Servantesning "Don Kixot" romani urush va jangovar qahramonlik mavzusidagi ritsarlik romanlarining obro'sini butunlay pasaytirib yubordi. Yozuvchining o'zi ta'kidlaganidek, "ritsarlik romanlarini sidirg'asiga fosh etish" maqsadida yaratilgan ushbu asar realistik romanchilikka asos soldi. Ushbu romanda satirik uslubda o'rta asr ritsarlik romanlari keskin tanqid ostiga olinadi. Don Kixot obrazining ritsar bo'lish va jasoratlar ko'rsatish yo'lidagi xomxayollari tasviri vositasida real hayotga mos kelmaydigan jangnoma va qahramonlik mavzusidagi ritsarlik romanlari rad etiladi.

XVIII – XIX asrlarda Yevropa ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yanada olg'a siljishlar ro'y berdi. Buning natijasida adabiyotda turli oqimlar yuzaga keldi va taraqqiy etdi. Ma'rifatchilik, romantizm va

tanqidiy realizm kabi yo‘nalishlarda ijod qilgan adiblarning asarlarida yangi davr, yangicha qarashlar ifodalandi. Bu davrlarda yaratilgan asarlar markazida, avvalo, inson qalbi, shaxs erkinligi singari taraqqiyparvar g‘oyalar turadi. Shuningdek, urushning g‘ayriinsoniy mohiyati, insonlar boshiga soladigan kulfatlari ham o‘z aksini topdi. Masalan, mashhur fransuz adibi Viktor Gyugoning ”To‘qson uchinchi yil” romanida shu xususiyat mavjud. Ushbu asarda ”Buyuk fransuz burjua inqilobi” (1789–1794) yillari voqealari tasvirlangan. Fransuz zodagonlaridan biri, inqilobga qarshi bo‘lgan markiz de Lantenak inqilobchilar hukumatiga qarshi urush olib boradi. Unga qarshi yuborilgan Goven boshliq respublika qo‘shinlari Lantenak armiyasini mag‘lub etadi. Lantenak eski qal‘aga yashirinib, qamalda qoladi. Dushmanga taslim bo‘lishni istamay, qal‘aga o‘t qo‘yib yuboradi. O‘zi esa fursatdan foydalanib, qochib ketmoqchi bo‘ladi. Biroq bir necha bolalari bilan qal‘a ichida qolib ketgan Fleshar ismli ayol dod soladi. Bu faryodni eshitgan Lantenak ortga qaytib, ayol va uning bolalarini olov ichidan olib chiqadi, buning natijasida o‘zi dushman qo‘liga asir tushadi. Lantenak hukumat tomonidan o‘limga hukm qilinadi. Ammo Lantenakning xaloskorligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Goven uni yashirincha ozod qilib yuboradi. Shunday qilib, asar qahramonlari taqdiri misolida mehr-shafqat, insonparvarlik masalasi ilgari suriladi va urush qoralanadi. Bunday misollarni yana ko‘plab uchratish mumkin. Masalan, fransuz yozuvchisi Prosper Merimening ”Karl XIX saltanati solnomasi” asarida diniy urushlar, fuqarolik urushlari; buyuk ingliz shoiri Jorj Bayronning ”Chayld Garoldning ziyoratlari” dostonida esa mustamlakachilik urushlari qoralanadi. Shu tariqa adabiyotda urushga nisbatan salbiy munosabat ko‘proq o‘rin egallashda davom etdi.

XX asr o‘zbek adabiyotida urush haqida yaratilgan asarlarning katta qismi jahon urushlari, ayniqsa II jahon urushi davri hayotini tasvirlagan. Urush yillari adabiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri safarbarlik ruhining ustunligi edi.

Hukumat va partiya buyurtmasi asosida bir qator she‘rlar, hikoya, qissa va romanlar hamda dramatik asarlar yaratildi. Biroq bu davrda yaratilgan asarlarning barchasini ham siyosiy buyurtma mahsuli deb

qarash to'g'ri emas. Masalan, G'afur G'ulomning "Sharqdan kelayotirman" to'plamiga kiritilgan insonparvarlik g'oyasini ilgari suruvchi antifashistik ruhdagi she'rlari, Oybekning "Mahmud Torobiy", Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi", Hamid Olimjonning "Muqanna" kabi tarixiy mavzudagi dramatik asarlari mualliflarning shaxsiy tashabbusi va ijodiy rejalari mahsuli edi. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, II jahon urushi yillari o'zbek dramaturgiyasida tarixiy mavzudagi asarlarning salmoqli o'rin tutgan. Tarixiy dramalarda o'tmishdagi buyuk shaxslarning qahramonliklari, mardlik va jasoratini tasvirlash vositasida xalqni kurashga, g'alabaga ruhlantirish, shuningdek, o'zbek xalqining buyuk o'tmishi borligini eslatish ham maqsad qilingan. Epik tur esa bu davrda lirika va dramaturgiyaga nisbatan ancha orqada qoldi. Shunday bo'lsa-da, Abdulla Qahhorning "Asror bobo", "Xotinlar" singari hikoyalari, "Oltin yulduz" qissasi, Oydinning "Umr sovg'asi", "Asl yor", "Er yurak" kabi hikoyalari yaratilib, jang va mehnat frontlarida jonbozlik ko'rsatgan insonlarning qahramonliklari, ichki kechinmalari va ruhiyati badiiy bo'yoqlarda tasvirlandi.

1979-yilda qo'shni Afg'onistonda "Savr inqilobi" deb nomlangan davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Buning natijasida fuqarolar urushi avj oldi. Sobiq SSSR hukumati Afg'onistonda bo'lib o'tayotgan ushbu fuqarolar urushiga aralashib, internatsionalizm niqobi ostida bu davlatga hujum uyushtiradi. Bu harbiy harakatlarga ko'plab o'zbek yigitlari ham safarbar qilinadi. Afg'on urushi ko'plab insonlarning hayotini izdan chiqardi. Bu jarayonlar badiiy adabiyotimizda ham o'z aksini topdi. Bu borada O'tkir Hoshimov alohida ajralib turadi. Yozuvchining shu mavzudagi "Nega, nega-a-a?!" hikoyasi va "Tushda kechgan umrlar" romanida behuda qurbon bo'lgan insonlarning fojiali taqdirini bayon etdi. Undan tashqari, Abdurashid Normurodovning "Qonli yo'rgaklar" romani, G'afur Po'latovning "Xerirud faryodi" harbiy-dala qissasida ham afg'on urushi fojialari tasvirlanadi.

Xulosa

Ushbu asarlarga xos umumiy xususiyat fojiaiy ruhning ustunligidir. Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asarlarning ko'pchiligida, vatanparvarlik, qahramonlik g'oyalari ustun tursa, afg'on urushi

mavzusida yozilgan barcha asarlarda tragik pafos yetakchi o‘rinda turadi. Chunki bu urush mohiyat jihatdan II jahon urushidan farq qilardi. II jahon urushi ham katta fojia va kulfatlarga sabab bo‘lgan, lekin unda qatnashgan o‘zbek sovet jangchilari Vatan himoyasi yo‘lida jang qilgandilar. Shu tufayli ham II jahon urushi haqidagi asarlarda qahramonlik ruhi yetakchilik qiladi. Afg‘on urushi esa yurt ozodligi uchun emas, Sovet hukumatining siyosiy rejalari uchun xizmat qildi. Shu tufayli ham afg‘on urushi mavzusidagi asarlarda qahramonlik emas, fojiaviylik ruhi yetakchi xususiyat kasb etadi. Umuman olganda, XX asr adabiyoti ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan hamnafas holda rivojlandi. Davrning muhim voqealariga hozirjavoblik bilan yondashdi. Ayniqsa, urush mavzusida juda ko‘p asarlar yaratildi. Ularda urushning vayronkor mohiyati realistik obrazlar vositasida aks ettirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turdiyeva, Y. The Portrait and Its Functions in the Work. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 4(12), 1-3.
2. Mahmudova, S. A. (2019). The concept of psychologism in the literature, techniques and methods of psychological image. *Научные вестни*, (10), 46-50.
3. Самандарова, Л. С. (2020). Место фольклорных традиций в современной узбекской романистике. in сборники конференций ниц Социосфера (No. 36, pp. 5-8). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
4. Juraeva, N. G. (2021). Observation of the poetic unity of the verse in the poetry of Muhammad Riza Ogahi. *International Journal of Linguistics, Literature and Culture*, 7(4), 293-302.
5. Abdullayeva, O. O. Q., & Abdullayeva, M. O. Q. (2021). Qalbgayaqin satrlar. *Scientific progress*, 2(3), 138-142
6. Ibragimova, D. I. Terminology of historical prose and the genre issue in uzbek literary studies.
7. Nusratov, B. (2023). Hikoya obrazining nazariy kriteriylari. *zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar*, 1(2).

8. Umarova, N. R. (2024). Abdulla oripov she'riyati abadiydir. *Academic research in educational sciences*, 5(CSPU Conference 1), 971-973.
9. Lola, S. (2021). Role of Myth and Legends in the Prose of Erkin Samandar. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 10(4), 49-58.
10. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
11. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.

ÖZBEK EDEBİYATINDA ABDURAUUF FITRAT'IN ROLÜ

Saidmurodova Mehriyo Abdusohidovna

*Cumhuriyet Çocuk Sanat
ve Müzik Koleji öğretmeni*

Özet: Türkistan'da ilk olarak marifetçilik hareketi sonrasında da ceditçilik hareketi ortaya çıkar. Abdurauf Fıtrat bu hareketlerin önemli temsilcilerinden biridir.

Makalede Abdurauf Fıtrat'ın hayatı ve ilmî faaliyetleri hakkında ana hatlarıyla bilgi vermek amaçlanmaktadır.

Anahtar kelimeler: Abdurauf Fıtrat, Ceditçilik, Din, Marifet, hayat yolu, eserleri, mücadele.

Kirish

Fitret, Sovyetler Birliği döneminde hayatını trajik bir şekilde kaybeden Özbek aydınlarından biridir. Elli iki yıl yaşayan Fıtrat, özel olarak Özbekistan'da genel olarak Sovyetler Birliği'nde Aydınlanma Hareketinin büyük temsilcisi, şair, yazar, tiyatro yazarı, dil bilimci, edebiyatçı olarak şöhret kazanmıştır.

Asosiy qisim

Fıtrat, ilk defa profesörlük unvanına layık görülen Özbek aydınıdır. Sovyetler Birliği'nin terör makinesi Fıtrat'i de rahat bırakmamıştır. 1937 yılında hapse atılan Fitret, asılsız yere, "halk düşmanı" diye suçlanarak, 4 Ekim 1938 yılında kurşuna dizilmiş, yazarın adı ve eserleri ortadan kaldırılmıştır. Bu yasak, on sekiz yıl sürmüştür. 1956 yılında Fitret'in itibarı iade edilmiştir. Abdurauf Fıtrat, 1886 yılında Buhara şehrinde aydın bir ailenin çocuğu olarak dünyaya gelmiştir. Buhara'nın meşhur tüccarlarından olan Abdurraufun babası, çoğu zaman Buhara dışında bulunurdu. Bu nedenle, Abduraufun gençlik yılları, annesi Mustafa Bibi ile birlikte geçmiştir. Mustafa Bibi, Arap ve Fars dillerini iyi bilen, halk edebiyatından ve çağıtayıcadan haberdar, çok sevdiği oğlunun kültürlü bir insan olarak yetişmesi, okuyup öğrenmesi için bütün varlığını ona adayan bir kadındı. Fitret'in öğrenme, bilme aşkıyla çarpan kalbinde, keskin zekasında derin izler bırakan aile ortamı,

annesinden dinlediği halk destan ve menkıbeleri, Nevalı, Fuzuli, Uveysi gibi şairlerin güzel şiirleri, Fitret'in edebiyat ve sanat sularına vakıf olmasında ve gelecekle ilgili planlar yapmasında çok önemli rol oynamıştır. Abdurauf, kendini edebiyata, sanata adamaya karar vermiştir.

Abdurauf Fitret'in kişi, yazar ve uzman olarak yetişmesinde hayatının İstanbul dönemi ayrı yer tutar. 1909-1913 tarihleri arasında İstanbul Üniversitesi, Edebiyat Fakültesinde öğrenim gören Fitret, Türkçülük öğretisini benimsemiştir.

1911 yılında Türk Yurdu dergisi kurulmuş ve Türklerin birbirleriyle tanışması, bilimde, iktisatta, kültürde ilerlemesi için sade bir dille yazılan yazılar yayımlanmaya başlamıştır. Türk Yurdu dergisinin kurulmasından birkaç ay sonra, bu dergiyi oluşturan heyet, Ziya Gökalp, Yusuf Akçura, Mehmet Emin gibi yazarlar başta olmak üzere Türk Ocakları cemiyetini kurmuşlardır. Türk Yurdu dergisinin 7. ve 8. sayılarında yayımlanan İsmail Gaspıralı'nın "Türk Yurduculanna" başlıklı önemli bir yazısında, milli mektep ve eğitim reformunun Türk dünyası için önemi, usuli cedid sisteninin temelleti sade bir dille açıklanmıştır. Bütün bu konulardaki çeşitli toplantılar tartışmalara katılan, bu fikirlerle haşır neşir olan Abdurauf Fitret, mektep ve medrese programları reformunun ve Türkçülük idealinin ateşli bir taraftarı olarak yetişmiştir.

Fitret'in öğrenciyken yazdığı Münazere ve Sayha adlı eserlerinde kalbi, millet için çalışma aşkıyla çarpan genç bir insanın heyecan ve duyguları, halkı gericilik, cehalet ve karanlıktan kurtanna amacı, güzel bir şekilde ifade edilmiştir.

İstanbul Üniversitesinden mezun olduktan sonra Türkistan'da hızlı yenileşme devrine girilmesine faydalı olmak amacıyla Fitret, 1913 yılında yurduna dönmüştür. İsmail Gaspıralı'nın eserleri, aydınlatma çalışmaları, usuli cedid okulları hakkında derin bilgiye sahip olan Fitret, Türkistan'a gelince Buhara, Taşkent ve Semerkant gibi şehirlerde yüzlerce usuli cedid mektebinin büyük bir istekle çalıştığını görmüştür. İlk örneği, 1901 yılında Münevver Kari tarafından, ikincisi 1903 yılında Mahmud Hoca Behbudi tarafından açılan Türkistan şehirlerinde bir birini hızla takip eden usuli cedid mektepleri, kısa zamanda aşağı yukarı sekiz on yıl içinde, sayıları yüzü aşarak çoğalmaya devmn ediyordu. Oldukça

heyecanlı kalbini daha hızla çarpmaya sevk eden bu ortamdan dolayı coşan Fitret, kendini tamamıyla aydınlatma çalışmalarını yürütmeye verir. Kendisinin kurduğu Hürriyet gazetesi, yenileşmeyi istemeyen usuli kadın mektepleri taraftarlarıyla mücadelede bir araç, bir silah olarak kullanılmıştır.

Fîtret, bu gazetede yayımladığı makalelerde milletin gericilikten, cehaletten ve karanlıktan kurtulması ile ilgili çeşitli konuları, özellikle eğitim reformunu, usuli cedit okullarını ele almıştır. Türkistan için eğitimin ve eğitim reformunun en önemli mesalc olduğunu özellikle vurgulamıştır.

Eğitim alanında devlet adamı olarak da çalışan Fîtret, 1921 -1923 yıllarında Milli Eğitim Bakanlığı yaptı. Öğretmen ve eğitim bakanı olarak çalıştığı sırada edindiği tecrübe, dil problemleri üzerine yaptığı araştırmalar, Fitret'in Özbek Dili, Özbek Dili Sarlı "grameri" adlı ders kitaplarını yazmasına temel kaynak olmuştur. Bu ders kitapları 1925-1930 yıllarında beş defa yayımlanmıştır.

Fitret'in dil üzerine yazdığı eserlerin konuları ve bu eserlerde açıklanan meseleleri anlatmak için "Dilimiz" adlı 1919 yılında yayımlanan küçük bir makaleyi göstermek yeterlidir. Fitret'in edebiyat alanındaki eserleri arasında, 1928 yılında yayımlanan Kadimgi Türk Edebiyatı Nemuneleri, 1936 yılında yayımlanan Eruz Hakkında incelemesi ayrı bir değere sahiptir Fitret'e gerçek ün kazandıran onun yazarlığıdır. Fitret, Özbek nazmı, nesri ve tiyatrosuyla ilgili çok güzel eserler vermiştir. Fitret'in nazımının en tipik örneği olan "Okıtuçiler Yurtige", "Şair", "Şark" gibi şiirlerinde bu dönemin önemli meseleleri ele alınmıştır, bu meselelere şairen ihtiraslı yaklaşımı sergilenmiştir.

Abdurauf Fitret, Ebul'eyizhan, Erslan ve Hint Ihtilalcileri gibi tiyatro eserleri de yazdı. Bu eserlerde Özbek halkı için çok önemli bir arzu olan bağımsızlık düşüncesini, işlemiştir.

Abdurrauf Fitret'in kaleme aldığı önemli konulardan biri de dindir. Bu konuda Fitret'in birkaç eseri vardır. Kıyamet adlı hikayesinde, Paçamir adlı bir kişinin maceraları yoluyla din perdesi altında çeşitli kötü işler yapan bir din adamı eleştirilmektedir.

Xulosa

Şeytannın Tanrige Isyanı isimli manzum tiyatro eseri, Fitret'in en önemli eserlerinden biridir. Bu eserle şeytanın Allah'ın emirlerine karşı çıkması anlatılır. Allah, şeytandan Adem'e secde etmesini emreder. Ama şeytan secde etmez, şeytan ateşten yaratılmıştır. Adem ise çamurdan yaratılmıştır. Ateş gibi yüce bir maddeden yaratılan, insana secde etmeyi kendine yakıştıramaz. Bu nedenle şeytan melekler arasından çıkarılır, cennetten kovulur. Kuran-ı Kerim'in 38. suresinde verilen bu konu, Fitret'in tiyatro eserinin temel olayıdır. Eserde akıl ve zeka, bilim ve marifetin insan hayatında, toplumun gelişmesinde oynadığı rol tahlil edilir.

Abdurauf Fıtrat, yeni dönem Özbek edebiyatının, Özbek sosyal düşüncesinin ve Özbek bağımsızlık hareketinin gelişmesinde büyük payı olan bir aydın olarak daha sonraki kuşakların kalbinde ebediyen ya~ayacaktır.

Kaynakça:

1.Eraslan, Cezmi (1996), "FITRAT, Abdurauf,", Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (DİA), C. XIII, İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı, ss. 48-49.

2.Fıtrat, Abdurauf (2000), Buhara'da Cedidcilik Eitim Reformu Münazara ve Hind Kıssası, Hazırlayan Seyfettin Erşahin, Ankara, T.C. Kültür Bakanlığı Yayınları.

3.Djalolov, Vahidjon (2003), İ.Mominov ve Felsefî Çalışmaları, (Basılmamış Yüksek Lisans Tezi), Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.

4.Фитрат, Абдурауф (2000), Танланган Асарлар I. жилд, Масъул муҳаррир: Н. Каримов, Тошкент, Манавият Нашриёти.

5.Хайруллуаев, Музаффар (1985), Культурное Наследие и История Философской Мысли, Ташкент, Издательство "Узбекистан".

6. Ходжайева Дилором Не'matова Gulruh. Jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakati va uning yangi renessans poydevorini barpo etishdagi o'rni. 2023. 86 bet.

7. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she'riyatda Bobur g'azallarining poetik xususiyatlari. Alfraganus, (1 (1)), 30-34.

8. Жумаева, С. Ч. “Тағазул” достонида шарқона тафаккур ва фалсафий мушоҳадалар талқини.